IJTIMOIY USTANOVKALAR SHAKLLANISHINING DINAMIK XUSUSIYATLARI UCHUN TRENING DASTURI VA UNING MONITORINGI

Bekbolayev J.J., GulDU doktaranti,

Anotatsiya: ma`lumki, talabalarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish va rivojlantirishning empirik asoslari bir nechta muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ma`lumki, ijtimoiy ustanovkalar - bu shaxsda mavjud bo‘lgan ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va ishonchlar tizimi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: trening, shakillanish, ijtimoiy ustanovka, ijtimoiy faolik, mas'uliyatni rivojlantirish.

Аннотация: Известно, что эмпирические основы формирования и развития социальных установок у студентов включают в себя несколько важных аспектов, социальные установки представляют собой систему социальных норм, ценностей и убеждений, присущих личности.

Ключевые слова: ренинг, формирование, социальная установка, социальная активность, развитие ответственности .

Annotation: It is known that the empirical foundations of forming and developing social attitudes among students include several important aspects, social attitudes represent a system of social norms, values, and beliefs that exist within an individual.

Key words: training, formation, social attitude, social activity, development of responsibility.

Kirish. Tadqiqot maqsadi, vazifalari hamda birinchi va ikkinchi boblarda qo‘lga kiritilgan tahlil natijalariga asoslanib, mazkur bobda talabalarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirishni rivojlanishga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratildi. Bunda asosan ikkinchi bobda keltirilgan empirik tahlil natijalariga tayanildi.

Taniqli psixologlar ta’kidlashicha, insonda emotsional jarayonlar va holatlar qanday ko‘rinishda aks etishi, shaxsning yakka, takrorlanmas individual psixologik, psixofiziologik tuzilishiga va umumiy nerv tizimining xususiyatlariga bog‘liqligi talabalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Yuqorida aytganimizdek, tadqiqotimizda ijtimoiy-psixologik ustanovkalar va shaxsning motivatsion ehtiyojlari asosidagi ijtimoiy-psixologik holatlarini tahlil qilish maqsadida O.F.Potemkinaning shaxsning motivatsiya-ehtiyoj sohasidagi ijtimoiy-psixologik ustanovkalarini diagnostika qilish metodikasidan foydalanganmiz, ushbu metodikaga tayanib, ijtimoiy-psixologik ustanovkalar va shaxsning motivatsion ehtiyojlari asosidagi ijtimoiy-psixologik holatlarini tahlil qilganmiz va ijtimoiy ustanovkalari o`rtacha va past ko`rsatkichga ega bo`lgan respondentlar uchun alohida trening mashg‘ulotlari dasturi tuzildi.

Xuddi shunday tarzda G.S.Nikifirov, V.K.Vasilov, S.V.Firsova tomonidan ishlab chiqilgan “Emotsional holatlarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish” metodikasi talablari bo‘yicha ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish ko‘rsatkichlari quyi darajada shakllangan talaba-yoshlar uchun ham maxsus yo‘naltirilgan trening dasturlari ishlab chiqildi va amaliyotda qo‘llanildi.

Keltirilgan psixologik trening dasturini qo‘llashda mutaxassis psixologlar kuchidan foydalanildi. Endi bevosita talabalarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish omillarini rivojlantirish dasturining metodologik asoslari, mohiyati, tuzilishi bilan qisqacha tanishtirib o‘tamiz. Demak, shaxsning ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish jarayoni bu shaxsdagi murakkab, dinamizm darajasi yuqori bo‘lgan, tashqi ta’sirlarga nisbatan nihoyatda sezgir tizimlardan biridir. Bu holat unga shakllantiruvchi ta’sirni o‘tkazish uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratadi. Shakllantiruvchi yondashuv ilmiy tadqiqotning amaliy ahamiyatini ham oshirishi shubhasiz. Shu jihatdan olganda talaba-yoshlarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish malakalarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Buning uchun tadqiqotimizning diagnostik bosqichi natijalariga ko‘ra, ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish ko‘rsatkichi past darajani tashkil etgan talaba-yoshlar uchun rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar tizimi ishlab chiqildi hamda o‘tkazildi.

Talaba-yoshlar bilan o‘tkaziladigan trening mashg‘uloti ijtimoiy ustanovkalarni nazorat qilish xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Trening dasturidan ko‘zlangan maqsad talaba-yoshlarda ijtimoiy ustanovkalarni nazorat qilish malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish va hissiy-irodaviy sifatlariga korreksion-rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishdan iboratdir.

Uz-uzini anglash, uzidagi mavjud sifatlarni baxolash jarayoni kupincha konkert shaxe tamonidan ogir kechadi, ya'ni inson tabiati shundayki, u uzidagi usha jamiyat normlariga tugri kelmaydi, nomakul sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» xarakat qiladi,

Demak, talaba-yoshlar bilan o‘tkaziladigan trening mashg‘ulotlarimizdan maqsad ulardagi shaxslilik xususiyatlarini rivojlantirish, hissiy holatlarni nazorat qilishga o‘rgatish darajasini kuchaytirishga qaratilgan. Tadqiqotimizni maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda barcha xususiy psixologik jihatlarni inobatga olib, trening guruhi bilan amaliy psixologik ishni o‘tkazish rejalashtirildi. Trening guruhi bilan to‘rt hafta davomida haftasiga 2,5 soatdan 3 soatgacha ish olib borildi.

Xulosa va takliflar: Talabalarda olib borilgan psixokorreksion ishlar davomida to‘plangan ma’lumotlarga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Shaxsning emotsional holatlarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish imkoniyatlarini kuchaytirish bevosita individual-psixologik xususiyatlarning rivojlantirilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Faoliyat jarayonida ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish ijtimoiylashuv jarayonida ijtimoiy ustanovkalarni rivojlantirish bilan uzviy aloqadorlikka ega, chunki muayyan darajadagi ijtimoiylashuv jarayonida ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish imkoniyati kuchayadi yoki aksincha, pasayish holati kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ядов В.А. Регулясия и саморегулясия сосиального поведения личности: постановка проблеми //Саморегулясия и прогнозирование сосиального поведения личности. – Л.: Наука, 2002. – С. 6-32.